Firibgarlik an'anaviy doktrinada aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish bilan bog'liq mulkiy jinoyat sifatida tushuntiriladi. Biroq raqamli muhitda aldashning amalga oshish shakli murakkablashadi. Jinoyatchi ba'zan inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi, ba'zan texnik tizimdagi zaiflikdan foydalanadi, ayrim hollarda esa ushbu ikki usulni birlashtiradi. Bu holat subyektiv belgilarni aniqlashda qasd va motiv bilan bir qatorda subyektning raqamli muhitdagi rolini ham baholashni talab etadi.

Maqolaning maqsadi axborot texnologiyalari orqali sodir etiladigan firibgarlikda subyekt va subyektiv tomonning jinoyat-huquqiy mazmunini ochib berish, qasd va motivni baholash mezonlarini aniqlash hamda raqamli shaxsiyatni o'g'irlash, yuridik shaxslar javobgarligi va sun'iy intellektidan foydalanish bilan bog'liq takliflarni asoslashdan iborat.

Asosiy qism

Subyektiv tomonning jinoyat-huquqiy mazmuni

Raqamli firibgarlikda subyektiv tomonning markaziy belgisi jinoyatchining mulkiy manfaatni qo'lga kiritishga qaratilgan ichki irodasidir. F.D. Frolov kompyuter firibgarligini kompyuter ma'lumotlari bilan g'arazli maqsadda amalga oshiriladigan va mulk egasiga zarar yetkazadigan harakat sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv raqamli vosita jinoyatning maqsadi emas, balki mulkiy natijaga erishish usuli ekanini ko'rsatadi (Frolov, 2019).

Subyektiv tomonni baholashda texnik harakat ortida turgan huquqiy niyatni ajratish muhim. Soxta veb-sahifa yaratishning o'zi har doim ham firibgarlik tarkibini keltirib chiqarmaydi. Agar ushbu sahifa jabrlanuvchidan bank ma'lumotlarini olish va keyin pul mablag'larini o'zlashtirish maqsadida ishlatilsa, texnik harakat qasdni amalga oshirish vositasiga aylanadi.

D.Y. Payziyev va A.B. Zokirov axborot texnologiyalari sohasidagi firibgarlik uchun alohida jinoiy javobgarlik normasini kiritish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar (Paiziev & Zokirov, 2024, p. 70). Bu fikr subyektiv belgilarni aniqroq ifodalash, jumladan, bevosita qasd, g'arazli maqsad, raqamli vositadan foydalanish irodasi va jabrlanuvchi ishonchini buzish mexanizmini qonun normasida ochiq ko'rsatish zarurati bilan izohlanadi.

Raqamli firibgarlikda subyektiv tomon belgilarini to'g'ri baholash uchun uchta mezon birgalikda tekshirilishi lozim. Birinchidan, shaxsning kelib chiqadigan mulkiy natijani

oldindan anglaganligi; ikkinchidan, axborot texnologiyalaridan aynan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish maqsadida foydalanganligi; uchinchidan, qilmish natijasidan moddiy yoki boshqa shaxsiy manfaat ko'zlaganligi aniqlanishi shart. Ushbu mezonlardan birortasi yetarli darajada isbotlanmagan taqdirda, qilmishni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Qasd, g'arazli maqsad va motiv

Firibgarlik odatda to'g'ridan to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Raqamli firibgarlikda ham aybdor shaxs o'z harakatining ijtimoiy xavfliligini anglaydi, jabrlanuvchining mulki yoki mulkiy huquqiga zarar yetishini oldindan ko'radi va ana shu natijaning yuz berishini xohlaydi. G'arazli maqsad jinoyatning ichki yo'nalishini belgilaydi.

Qasd va motiv tushunchalarini bir-biri bilan aralashtirib yubormaslik lozim, chunki ular jinoyat subyektiv tomonining o'zaro bog'liq, ammo mazmunan farq qiluvchi belgilaridir. Qasd shaxsning sodir etayotgan qilmishi va uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatini ifodalasa, motiv shaxsni mazkur harakatga undagan ichki sabab hamda rag'batlantiruvchi omillarni ko'rsatadi. Raqamli firibgarlikda g'arazli maqsad jinoyat tarkibining majburiy subyektiv belgisi hisoblanadi, chunki aybdorning harakati bevosita o'zganing mulki yoki mulkiy huquqini qonunga xilof ravishda qo'lga kiritishga yo'naltirilgan bo'ladi. Motivlar esa har bir holatda turlicha namoyon bo'lib, ular moliyaviy naf ko'rish, jabrlanuvchidan qasos olish, jinoiy guruhdagi mavqeni oshirish, texnik imkoniyatlarini namoyish etish yoki muayyan korporativ manfaatni ta'minlash kabi omillar bilan bog'lanishi mumkin.

L. Zhang va hammualliflar raqamli davrda jinoiy niyatni tahlil qilar ekan, kiberfiribgarlik odatda to'g'ridan to'g'ri qasd bilan sodir etilishini va aybdor o'z harakatining ijtimoiy xavfliligini anglashini ta'kidlaydilar (Zhang et al., 2023, pp. 156–178). Bu yondashuv firibgarlikning jinoyat-huquqiy tabiatiga mos keladi, chunki soxta havola tayyorlash, ma'lumot yig'ish, akkaunt ochish, pulni tezda boshqa hisobga o'tkazish yoki izlarni yashirish tasodifiy ravishda amalga oshirilmaydi.

Anderson va Johnson kiberjinoyatchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganib, moliyaviy foydani asosiy motiv sifatida ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ular texnik qobiliyatni namoyish etish, qasos olish va boshqa ijtimoiy-psixologik omillar ham kiberfiribgarlik motivlari doirasida uchrashini qayd etadilar (Anderson & Johnson, 2023, pp. 245–267). Bu raqamli firibgarlikda motivlar doirasi an'anaviy firibgarlikka nisbatan kengayganini ko'rsatadi.

A.A. Tashtemirov bank plastik kartalari va internet xizmatlari orqali sodir etiladigan pul o'g'irlash hamda firibgarlik holatlarida Ichki ishlar vazirligi, Markaziy bank va protsessing markazlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi (Tashtemirov, 2022, pp. 35–40). Ushbu yondashuv subyektiv belgilarni isbotlash uchun ham ahamiyatli, chunki bir nechta kartaga pul o'tkazish, soxta akkauntlar ochish, yashirish vositalaridan foydalanish, mablag'ni tezda yechib olish yoki tarqatish qasdning oldindan shakllanganini ko'rsatuvchi holatlar bo'lishi mumkin.

A.A.S. Al Hait kiberfiribgarlik uchun javobgarlik masalasida davlatlar turlicha yondashuvga ega ekanini qayd etadi (Al Hait, 2021). Bu holat O'zbekiston huquqi uchun ham muhimdir, chunki raqamli vosita qasdni aniqlashda yordamchi belgi bo'lishi mumkin, ammo firibgarlikning asosiy subyektiv mazmuni g'arazli maqsad va jabrlanuvchini aldash irodasi bilan belgilanadi.

Jinoyat subyekting raqamli muhitdagi xususiyatlari

Raqamli firibgarlik subyekti umumiy jinoyat subyekti belgilariga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Shu bilan birga, ushbu jinoyat turida subyektning axborot texnologiyalaridan

foydalanish ko'nikmasi, onlayn muhitda harakat qilish malakasi, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va psixologik ta'sir usullarini bilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

W. Chen va K. Roberts kiberfiribgarlarni texnik mutaxassislar, ijtimoiy manipulyatorlar, gibrid jinoyatchilar va yollanma ijrochilar kabi guruhlariga ajratadilar (Chen & Roberts, 2024, pp. 178–201). Mazkur tipologiya amaliyot uchun muhim, chunki tergov organlari jinoyatchini faqat dasturchi yoki xaker sifatida tasavvur qilsa, ijtimoiy manipulyatorlarni aniqlash kechikadi, aksincha, faqat psixologik aldashga e'tibor qaratish texnik operatorlarning rolini kamsitadi.

Raqamli firibgarlikda jinoyat subyektini aniqlashda rolli tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usul har bir ishtirokchining jinoiy oqibat yuzaga kelishiga qo'shgan hissasini alohida baholash imkonini beradi. Zero, fishing havolasini yaratgan dasturchi, jabrlanuvchiga qo'ng'iroq qilib uni aldagan shaxs, pul mablag'larini naqdlashtirib olgan ijrochi hamda umumiy jarayonni muvofiqlashtiruvchi tashkilotchi turlicha harakat qiladi. Biroq ularning barchasi umumiy jinoiy maqsadni anglagan holda harakat qilgan taqdirda, jinoiy ishtirokchilik qoidalari doirasida javobgarlikka tortiladi.

Shu jihatdan kiberfiribgarlik subyektini aniqlashda shaxsning yoshi, ma'lumoti, kasb yoki texnik malakasi alohida-alohida emas, balki jinoiy sxemada bajargan vazifasi bilan uzviy bog'liq holda baholanishi lozim. Zero, shaxs yuqori texnik bilimiga ega bo'lmasa-da, jabrlanuvchining ishonchini qozonish, unda qo'rquv yoki shoshilinchlik tuyg'usini uyg'otish, o'zini bank xodimi yoki yaqin qarindosh sifatida ko'rsatish orqali ham jinoiy oqibatning yuzaga kelishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jinoyatchilikning oldini olish nuqtayi nazaridan subyekt tipologiyasini o'rganish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki texnik mutaxassislar orasida kiberetika, kasbiy javobgarlik va axborot xavfsizligi madaniyatini kuchaytirish zarur bo'lsa, ijtimoiy manipulyatorlarga qarshi kurashishda aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish samaraliroq natija beradi. Yollanma ijrochilar va moliyaviy vositachilarga nisbatan esa bank operatsiyalari, elektron hamyonlar va shubhali tranzaksiyalarni monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Ishtirokchilik va sun'iy intellekt omili

Jinoyat subyektini baholashda uning raqamli muhitdagi funksional roli muhim. Bir shaxs fishing sahifasini tayyorlaydi, ikkinchisi jabrlanuvchi bilan muloqot qiladi, uchinchi karta yoki elektron hamyon orqali pulni qabul qiladi, to'rtinchisi mablag'ni naqdlashtiradi yoki kriptoaktivga aylantiradi. Bunday holatda har bir ishtirokchining texnik bilimi bir xil bo'lmasligi mumkin, ammo ular umumiy jinoiy natijani anglagan holda harakat qilsa, subyektiv bog'liqlik mavjud deb baholanadi.

Martinez va Williams zamonaviy kiberfiribgarlik guruhlarida texnik mutaxassislar, ijtimoiy muhandislar, moliyaviy operatorlar va boshqaruvchilar kabi rollar mavjudligini ko'rsatadilar (Martinez & Williams, 2024, pp. 89–112). Shu bois ishtirokchilarning javobgarligi ularning haqiqiy roli, qasdi va umumiy jinoiy natijaga qo'shgan hissasiga qarab belgilanishi lozim.

Kumar va hammualliflar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadigan kiberfiribgarlarning motivlari va maqsadlarini tahlil qilib, moliyaviy foyda bilan birga texnologik ustunlikka erishish istagi ham ahamiyatga ega ekanini qayd etadilar (Kumar et al., 2024, pp. 234–256). Agar aybdor shaxs tayyor sun'iy intellekt vositasidan foydalanib ovozni taqlid qilsa yoki shaxsga moslashtirilgan fishing matni yaratsa, bu holat jabrlanuvchining ishonchini maqsadli buzishga qaratilgan tayyorgarlik sifatida baholanishi mumkin.

Sun'iy intellekt vositasi mustaqil jinoyat subyekti sifatida emas, jinoyat quroli sifatida qaralishi kerak. Javobgarlik uni yaratgan, moslashtirgan, ishga tushirgan yoki jinoiy maqsadda qo'llagan shaxslarga yuklanadi. Biroq algoritmlar orqali ommaviy tarzda aldash sodir etilsa, bu holat jinoyatning ijtimoiy xavfliligini oshiruvchi belgi sifatida baholanishi lozim.

Raqamli shaxsiyatni o'g'irlash va zararni qoplash

Raqamli shaxsiyatni o'g'irlash firibgarlikning subyektiv belgilarini yanada murakkablashtiradi. Copes va Vieraitis shaxsni o'g'irlashni boshqa shaxsning identifikatsiya ma'lumotlaridan firibgarlik yoki boshqa jinoyatlarni sodir etish uchun qasddan va ruxsatsiz foydalanish sifatida ta'riflaydilar. Agar shaxs boshqaning logini, paroli, karta ma'lumoti, elektron raqamli imzosi yoki akkauntidan foydalansa, uning qasdi ko'p hollarda faqat mulkiy foyda olish bilan cheklanmaydi (Copes & Vieraitis, 2009, pp. 329–349).

Kopes va Vieraitis shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar avval qo'lga kiritilishi, keyin esa ular firibgarlik maqsadida ishlatilishi mumkinligini ikki bosqichli jarayon sifatida tavsiflaydilar (Copes & Vieraitis, 2012). Bu konsepsiya raqamli firibgarlikda tayyorgarlik bosqichi bilan asosiy jinoiy harakat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.

Raqamli identifikatsiya ma'lumotlarini qasddan va ruxsatsiz egallashni mustaqil jinoyat tarkibi sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Bu firibgarlikning keyingi bosqichini kutib o'tirmasdan, ma'lumot o'g'irlashning o'zi uchun javobgarlik belgilash va kelgusidagi mulkiy zararining oldini olish imkonini beradi.

Indoneziyalik tadqiqotchilar Jaya, Sagala va Ridholar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashda ijtimoiy-huquqiy hamda fuqarolik-huquqiy mexanizmlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladilar. Raqamli muhitda bunday yondashuv ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki kiberaktivlar nihoyatda tez harakatlanadi va ularni qaytarish imkoniyati ko'p jihatdan dastlabki protsessual bosqichda ko'rilgan choralarga bog'liq bo'ladi (Jaya et al., 2024, pp. 475–494).

Zararni qoplashda ham subyektiv jihatni inobatga olish zarur. Aybdor jabrlanuvchining nafaqat pul mablag'ini, balki uning raqamli identifikatsiyasini, ishonch muhitini va kelgusida xavfsiz foydalanish imkoniyatini ham buzadi. Shuning uchun zarar tarkibiga bevosita yechib olingan mablag' bilan birga hisoblarni tiklash, kartalarni almashtirish, huquqiy yordam, axborot xavfsizligini tiklash va shaxsiy ma'lumotlar oshkor bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlar ham kiritilishi maqsadga muvofiq.

Yuridik shaxslar va korporativ kiberfiribgarlik

O'zbekiston jinoyat huquqida firibgarlik subyekti asosan jismoniy shaxs sifatida qaraladi. Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida firibgarlik korporativ infratuzilma, elektron savdo platformasi, to'lov tizimi yoki xizmat ko'rsatuvchi kompaniya nomi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda faqat alohida xodimni javobgar qilish har doim ham ijtimoiy adolat va profilaktika maqsadiga to'liq xizmat qilmaydi.

Gherman va Verebceanu yuridik shaxslarni tugatish bilan bog'liq choralar aniq asos va tartibga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Raqamli firibgarlikda bu masala yanada muhim, chunki yuridik shaxs manfaati uchun qilingan harakat bilan xodimning shaxsiy manfaati uchun qilingan harakatni ajratish zarur (Gherman & Verebceanu, 2024, p. 61).

Streteanu va Chirita yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasi doktrinal munozaralar markazida ekanini va bunday javobgarlik uchun aniq mezonlar ishlab chiqilishi lozimligini ta'kidlaydilar (Streteanu & Chiriță, 2002, pp. 45–46). Bu fikr raqamli firibgarlik uchun ham dolzarbdir, chunki korporativ muhitda jinoyat shaxsiy tashabbus, rahbariyat

ko'rsatmasi yoki tashkilot manfaati uchun amalga oshirilgan harakat ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

N. Neagu yuridik shaxslarning firibgarlik uchun javobgarligi faqat qasddan sodir etilgan hollarda yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv muhim huquqiy chegarani belgilaydi (Neagu, 2019, p. 674). Kompaniyada ichki nazoratning sustligi yoki xodimning shaxsiy huquqbuzarligi har doim ham yuridik shaxsning jinoiy javobgarligini keltirib chiqarmasligi kerak.

Li va hammualliflar korporativ kiberjinoiyatlarning yangi ko'rinishlarini tahlil qilib, kompaniya xodimlari ishtirokidagi sxemalar xavfini ko'rsatadilar. Xodim mijoz ma'lumotlariga qonuniy kirish huquqiga ega bo'lgani holda ularni tashqi shaxslarga berishi, soxta tranzaksiyalarni yashirishi yoki firibgarlik guruhi bilan til biriktirishi mumkin (Li, et al., 2024, pp. 167–189). Bunday vaziyatda maxsus subyekt belgisi sifatida xizmat vakolati va axborot resurslariga kirish imkoniyati hisobga olinishi lozim.

Korporativ kiberfiribgarlikda rahbariyatning xabardorligi, ichki nazorat tizimlari, xodimning vakolat doirasi va jinoiy natijaning yuridik shaxs manfaatiga xizmat qilgani alohida baholanishi kerak. Agar firibgarlik yuridik shaxs manfaati uchun, uning rahbar organi yoki vakolatli xodimi tomonidan qasddan sodir etilsa, yuridik shaxsga nisbatan jarima, muayyan faoliyatni cheklash, litsenziyani bekor qilish yoki boshqa ta'sir choralari qo'llash masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Qasdni isbotlashning raqamli mezonlari

Raqamli firibgarlikda jabrlanuvchining o'z ma'lumotini o'zi kiritgani yoki kodni o'zi aytgani aybdorning qasдини inkor etmaydi. Firibgarlikning mohiyati aynan jabrlanuvchi irodasini yolg'on axborot ta'sirida shakllantirishda namoyon bo'ladi. Demak, tergov va sud amaliyotida asosiy savol jabrlanuvchi harakatni o'zi bajargan yoki bajarmaganida emas, balki ushbu harakat qanday aldash mexanizmi natijasida yuzaga kelganida bo'lishi lozim.

Qasdni isbotlashda aybdorning tayyorgarlik harakatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Soxta saytlarni yaratish, bank yoki davlat organlarining rasmiy veb-resurslariga o'xshash interfeyslardan foydalanish, bir martalik kodlarini qo'lga kiritish uchun maxsus ssenariylar tayyorlash, jabrlanuvchida shoshilinchlik hissini uyg'otish va pul mablag'larini yashirish maqsadida ko'plab tranzaksiyaviy hisobvaraqlardan foydalanish – jinoyat subyektiv tomonining qasd elementini ochib beruvchi asosiy dalillar hisoblanadi. Mazkur tayyorgarlik bosqichlari aybdorning nafaqat mexanik yoki texnik harakatlarini bajarganini, balki jabrlanuvchini qasddan chalg'itib, ko'zlangan moddiy natijaga erishishni oldindan ko'ra bilganligi va buni xohlaganidan dalolat beradi.

Raqamli firibgarlikda qasdni isbotlash an'anaviy firibgarlikka nisbatan murakkabroqdir. An'anaviy holatda aldash, mulkni topshirish va zarar yuzaga kelishi ko'pincha bir voqelik doirasida namoyon bo'ladi. Raqamli muhitda esa jinoiy natija bir necha texnik harakat, avtomatlashtirilgan operatsiya, elektron hisob, messenjer yozishmasi va bank tranzaksiyalari orqali shakllanadi. Shuning uchun qasdni faqat jabrlanuvchi ko'rsatmasi asosida emas, balki raqamli izlar zanjiri orqali ham asoslash talab etiladi.

Qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlari

Raqamli firibgarlikning subyektiv belgilarini aniqlash bo'yicha milliy qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishda bir necha yo'nalish muhim ahamiyatga ega. Birinchi yo'nalish axborot texnologiyalari sohasidagi firibgarlik uchun alohida jinoyat tarkibini aniqlashtirish bilan bog'liq. Bunday normada qilmish to'g'ridan to'g'ri qasd bilan sodir etilishi, g'arazli maqsad majburiy belgi ekani va raqamli vositalardan foydalanish jinoyat usuli sifatida baholanishi ko'rsatilishi lozim.

Ikkinchi yo'nalish raqamli shaxsiyatni o'g'irlashni mustaqil jinoyat sifatida belgilashdir. Elektron identifikatsiya ma'lumotlarini qasddan va ruxsatsiz egallash keyingi firibgarlik uchun asosiy tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur bosqichda jinoiy javobgarlikning belgilanishi jinoyatchilikning oldini olish samaradorligini yanada oshiradi.

Uchinchi yo'nalish yuridik shaxslarning javobgarligini aniq mezonlar asosida belgilash bilan bog'liq. Agar firibgarlik yuridik shaxsning manfaati yo'lida, uning rahbar organi yoki vakolatli xodimi tomonidan qasddan sodir etilgan bo'lsa, ushbu yuridik shaxsga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash imkoniyati qonunchilikda nazarda tutilishi mumkin.

To'rtinchi yo'nalish esa zararni qoplash mexanizmini raqamli muhit xususiyatlariga moslashtirishdir. Bunda qoplanishi lozim bo'lgan zarar tarkibiga bevosita moddiy zarar bilan bir qatorda, raqamli identifikatsiyani tiklash xarajatlari, shaxsga doir ma'lumotlarning oshkor bo'lishi oqibatida yuzaga kelgan zarar, ishchanlik obro'siga putur yetkazilganligi hamda kiberxavfsizlikni qayta tiklash uchun sarflangan mablag'lar ham kiritilishi kerak.

Xulosa

Raqamli firibgarlikning subyektiv tomoni belgilari jinoyat-huquqiy tahlilda alohida o'rin tutadi. Ushbu jinoyatning tashqi shakli bevosita axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lsa-da, uning ichki mazmuni qasd, g'arazli maqsad, motiv hamda shaxsning jinoiy oqibatga bo'lgan ruhiy munosabati orqali ochib beriladi. Shu sababli tadqiqotlarda axborot texnologiyalari vositalariga haddan tashqari urg'u berish va subyektiv belgilarni ikkinchi darajali omil sifatida baholash ilmiy jihatdan to'g'ri emas.

Tahlil natijalari raqamli firibgarlikning asosan to'g'ridan to'g'ri qasd bilan sodir etilishini ko'rsatadi. Bunda jinoyat subyekti jabrlanuvchining mulkiga zarar yetkazilishini oldindan anglaydi va aynan shu oqibatning kelib chiqishini xohlaydi. G'arazli maqsad firibgarlik jinoyati tarkibining majburiy belgisi bo'lib qolsa-da, raqamli muhitda texnik ustunlikka erishish, qasos olish yoki jinoiy guruhdagi maqomni yuksaltirish kabi qo'shimcha subyektiv motivlar ham tez-tez ko'zga tashlanadi.

Jinoyat subyekti yuqori malakali texnik mutaxassis bo'lishi ham, oddiy foydalanuvchi bo'lishi ham mumkin. Ayrim hollarda jinoyat guruh tomonidan amalga oshirilib, ishtirokchilar texnik, psixologik va moliyaviy rollarga bo'linadi. Bu holat jinoyatni kvalifikatsiya qilishda har bir ishtirokchining qasdi va rolini alohida baholashni talab qiladi.

Raqamli firibgarlikka qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblanadi: axborot texnologiyalari sohasidagi firibgarlik uchun alohida jinoyat tarkibini aniqlashtirish, raqamli identifikatsiya ma'lumotlarini qonunga xilof ravishda egallaganlik uchun mustaqil javobgarlik belgilash, yuridik shaxslarning javobgarligini qasd mezonini asosida ishlab chiqish, ishtirokchilikka rollar taqsimotini differentsiatsiya qilish hamda zararni qoplash tizimini raqamli muhit xususiyatlariga moslashtirish. Mazkur choralar ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy ta'sir choralari aniqligi va samaradorligini yanada oshiradi.

REFERENCES

1. Frolov, F. D. (2019). *Ugolovno-pravovoe i kriminologicheskoe protivodeystvie moshennichestvu v sfere kompyuternoj informatsii* [Criminal law and criminological

counteraction to fraud in the field of computer information] (Author's abstract of Candidate's thesis, Moscow).

2. Paiziev, D. Yu., & Zokirov, A. B. (2024). Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi [The issue of liability for fraud crimes committed using information technologies]. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(6), 70.

3. Zhang, L. (2023). Criminal intent in digital age. *Cybersecurity Psychology Review*, 19(2), 156–178.

4. Anderson, P., & Johnson, M. (2023). The psychology of cybercriminals. *International Journal of Digital Crime*, 26(3), 245–267.

5. Tashtemirov, A. A. (2022). Axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligiga erishishning huquqiy va tashkiliy jihatlari [Legal and organizational aspects of achieving efficiency in combating fraud crimes committed through information technologies]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(12 Special Issue), 35–40.

6. Al Hait, A. A. S. (2021). *Cyber hacking: Building a harmonised criminal legal framework for addressing cyber hacking in the Arab Convention on Combating Information Technology Offences* (Doctoral dissertation). Anglia Ruskin University, Cambridge.

7. Chen, W., & Roberts, K. (2024). Profiling cyber fraudsters. *Journal of Criminal Psychology*, 28(2), 178–201.

8. Martinez, R., & Williams, S. (2024). Organized cybercrime groups. *Journal of Criminal Organizations*, 31(1), 89–112.

9. Kumar, A., et al. (2024). Artificial intelligence in cybercrime: Motivation and intent. *AI and Criminal Behavior*, 15(4), 234–256.

10. Copes, H., & Vieraitis, L. M. (2009). Understanding identity theft: Offenders' accounts of their lives and crimes. *Criminal Justice Review*, 34(3), 329–349.

11. Copes, H., & Vieraitis, L. M. (2012). *Identity thieves: Motives and methods*. Northeastern University Press.

12. Jaya, I., Sagala, P., & Ridho, M. A. (2024). Legal analysis of civil law settlement in the perspective of criminal legal settlement. *Journal of Multidisciplinary Academic and Practice Studies*, 2(4), 475–494.

13. Gherman, M., & Verebceanu, S. (2024). The general legal concept of institution of liquidation of the legal entity. *Forensic Science*, 25(1), 61.

14. Streteanu, F., & Chiriță, R. (2002). *The criminal liability of the legal entity* (pp. 45–46). Rosetti Publ.

15. Neagu, N. (2019). *Criminal law: General part* (p. 674). Universul Juridic Publishing House.

16. Li, J. (2024). Corporate cybercrime: New dimensions. *Business Crime Review*, 31(2), 167–189.



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).